



**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**



JIZZAX VILOYATNING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

**2024 - YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2024- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 813,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023 - yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 180,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2024 yil yanvar

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 71,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 0,3 % ga oshgani kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024 - yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2023- yil

B

0,8 %

2024- yil

B

0,3 %

Yanvar

2024-yil yanvar

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	39,2	67,4	28,2
Sharof Rashidov tumani	33,8	228,6	194,8
Zomin tumani	232,5	235,1	2,6
Jizzax shahri	5 828,8	5 476,7	-352,1
Zafarobod tumani	69,1	111,9	42,8

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 88,8 % ni tashkil etdi.

8,0 %


2023- yil

700,8 %

2024- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, fizik hajmi indeksi % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2024 - yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 770,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,6 % ini tashkil etdi.


2023-yil yanvar

95,7 %

2024-yil yanvar

97,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 70,7 % (46,8 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali – 6,2 % (9,0 %) va quyi texnologiyalisi - 20,6 % (39,9 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 69,2 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 4,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 74,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,1 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 129,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,6 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 290,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,5 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 479,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar	2024- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	2 133,0	4 173,9	2 040,9
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	2 206,1	1 139,1	-1 067,0
Paxta chigiti, t.	3 324,1	6 365,0	3 040,9
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	209,0	1 515,0	1 306,0
Paxta linti, t.	179,0	401,5	222,5
Trikotaj polotnolar, t.	145,0	121,0	-24,0

2024 - yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (48,4 % kamaygan), 4,2 ming tonna paxta tolasi (95,7 % ga oshgan), holda ishlab chiqarilib, 6,4 ming tonna paxta chigiti 91,5 % ga) oshgani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

51,6 %


Paxta tolasi, t.

195,7 %


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023 - yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 55,5 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 74,3 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023 - yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 38,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 - yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 214,5 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 94,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 80,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 141,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 63,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,002 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 3,3 % ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 5488,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 55,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 137,8 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 238,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 158,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 %, fizik hajm indeksi 85,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 35,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 4,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 652,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 36,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 316,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 29,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,8 % ga oshgan

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 35,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,9 % ini) tashkil etdi. 2024 - yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,3 % ga oshishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023 - yil yanvar	2024 - yil yanvar	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	11 143,3	22 163,8	11 020,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	11 324,9	11 817,2	492,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023 - yil yanvar	2024 - yil yanvar	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	2 371,6	2 421,7	50,1
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1 812,6	1 050,2	-762,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 31,1 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 246,4 % ga oshishi kuzatildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2518 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 715 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,4 % i) Jizzax shahriga, 372 tasi (14,8 %) Sharof Rashidov tumaniga, 282 tasi (11,2 %) G'allaorol tumaniga, 234 tasi (9,3 %) Zomin tumaniga va 157 tasi (6,2 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2022-yil

62 dona

2023- yil

33 dona

2024- yil

39 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2022- yil

3702 dona

2023- yil

3850 dona

2024- yil

2518 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan